



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 26-aprel, № 81 (8704)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



KELAJAK MUHANDISLARI

Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasida Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, akademik Sadriiddin Turobjonov hamda yosh olimlar, tadqiqotchilar, iqtidorli talabalar ishtirokida "Muhandis kadrlar tayyorlash istiqboli" mavzuida ma'ruza tashkil etildi.

Atoqli olim tomonidan qilingan ma'ruza qizg'in olqishlandi. Yoshlar o'zlarini qiziqitirgan savollarga javob oldi. Qiziqarli va bahs-munozaralarga boy tarzda o'tgan uchrashuvda bildirilgan taklif hamda tavsiyalar asosida kelgusida hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar kelishib olindi.

Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha mehnat bozorida muhandislik mutaxassislklariga talabning oshishini ko'rmoqdamiz. Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan muhim vazifalarni mutlaqo yangi texnik darajada hal qila oladigan, fundamental bilimlarni, loyihalashtirish ko'nikmalarini to'liq o'zlashtirgan, yetakchilik fazilatlariga, jamoada ishlash qobiliyatiga ega yuqori malakali muhandislarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasi, desak, adashmaymiz.

Nuqtai nazar

Oqil SALIMOV,
akademik.

Muhandislik — jamiyat muammolariga xavfsiz yechim topish uchun zarur bo'lgan inshoot, uskuna, moslamalarni ta'mirlash, loyihalashtirish uchun ilmiy, matematik, iqtisodiy, ijtimoiy va amaliy bilimlar olish hamda qo'llash bilan bog'liq tizimlar majmuidi.

Istaymizmi-yo'qmi, zamon yoshlardan kompyuter texnologiyalariga oid bilimlarni puxta egallash va sohani mukammal bilishni talab etmoqda. Mamlakatda iqtisodiy

barqarorlikka erishish, sanoatni yanada rivojlantirish uchun bugun texnologiyalar, ayniqsa, muhandislik sohasiga alohida urg'u berilishi lozim. Ta'kidlash joizki, muhandislik sohasi zamonaviy sanoat tarmoqlari uchun foydali bo'lgan turli texnologik asbob-uskunalar, mashinalar, predmetlarni ishlab chiqishda iqtisodiyotga o'zaro bog'liq bo'lib kasb-hunar sifatida sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, mahsulot tannarxini minimallashtiradi.

Muhandis kadrlar sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari, texnologiya sohasidagi jadal innovatsiyalar orqali mamlakat eksport salohiyatini ko'tarishda, xalqaro bozorlarga olib chiqishda, zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanishida katalizator vazifasini bajaradi.

Prezidentimiz 2022-yilgi Murojaatnomasida: "...Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni kengaytiramiz. Kimyo sanoati, elektr texnikasi, transport va energetika sohalarida nufuzli xalqaro

tashkilotlar bilan birga alohida Muhandislik maktablari tashkil qilinadi. Bu tizim bizda hozirgacha bo'lmagan. Lo'nda aytganda, yangi zamon injenierlari tayyorlash tizimini yaratamiz", degan edi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda zamonaviy iqtisodiyotni texnologik yuksaltirish orqali bandlekni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va inson kapitalida o'sish sodir bo'lishini ilgari surib kelmoqda.



TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETIDA
MAMLAKATIMIZ ISTIQBOLI UCHUN
ETUK KADRLAR TAYYORLANMOQDA



Hamkorlik

Buyuk Britaniya
O'zbekistonda girik
investitsiyaviy loyihalarni
amalga oshirishdan manfaatdor

Oksford Islom tadqiqotlari
markazida O'zbekiston va Buyuk
Britaniya o'rtasidagi sheriklik
istiqbollari muhokama qilindi

O'zbekiston Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi Oksford Islom tadqiqotlari markazida tashkil etilgan "O'zbekiston — Britaniya munosabatlari: kelajakka nigoh" mavzuidagi ilmiy-amaliy konferensiyada qatnashdi.

Unda Buyuk Britaniya parlamenti, hukumati va ishblarmon doiralari vakillari, jamoat arboblari, Oksford universiteti va boshqa yetakchi oliy ta'lim muassasalari olimlari, tadqiqotchilari hamda OAV xodimlari ishtirok etdi.

Anjuman doirasida yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy sohalarida, shuningdek, aholi farovonligi va hayot sifatini oshirish, inson huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan demokratik o'zgarishlarning borishi haqida taqdimotlar o'tkazildi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston: kuchli zamonaviy ahamiyatga ega boy sivilizatsiya", "O'zbekiston va Buyuk Britaniya: muloqot va ishonchli munosabatlar orqali kelajakni bunyod etish", "O'zbekiston va Buyuk Britaniyaning o'zaro farovonligi: biznes, investitsiyalar va ta'lim" mavzularida panel sessiyalari tashkil etildi.

Bo'lib o'tgan tadbirlar davomida ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish va kengaytirish, ularni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan fikr almashildi.

Britaniya tomoni va boshqa xorijiy mutaxassislar o'z ma'ruzalarda rasmiy London Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik va iqtisodiy islohotlarni, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasining xavfsizligi, barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan respublikaning ochiq va konstruktiv tashqi siyosatini yuksak qadrlashini hamda qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi.

Panel muhokamalar chog'ida ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar sohalarida, jumladan, ta'lim va turizm yo'nalishlarida sheriklikni mustahkamlash bo'yicha mavjud salmoqli salohiyatni ro'yobga chiqarishdan manfaatdorlik bildirildi.

Lord UEVERLI,
Buyuk Britaniya parlamenti Lordlar palatasi
a'zosi:

— Buyuk Britaniya — O'zbekiston munosabatlari har bir sohada yanada rivojlanishi uchun tomonlarda juda ko'p imkoniyatlar mavjud. Biz, albatta, ularni ishga solgan holda kelgusida mamlakatingizda Britaniya sarmoyasi ishtirokida yirik loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdormiz.

Yaqinda Buyuk Britaniya TIV rahbari Devid Kameronning O'zbekistonga bo'lib o'tgan tashrifi ham Londonning rasmiy Toshkent bilan ikki tomonlama aloqalarini yanada rivojlantirishdan manfaatdorligidan dalolatdir.



Jarayon

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI ISHLAB CHIQLADI

O'tgan davr mobaynida davlat boshqaruvi va jamiyat hayotining barcha sohasini tubdan isloh etish, davlat organlari hisobdorligi, ochiqligi hamda shaffofligini kuchaytirish, vakillik organlarining ta'sirchan nazoratini yo'lga qo'yish borasida izchil islohotlar amalga oshirildi.

Xususan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ustidan xalq deputatlari Kengashlarining nazorat funksiyalarini kengaytirish maqsadida ularga qirg'dan ortiq qo'shimcha vakolatlar berildi.

Shu tariqa hududiy vakillik organlari faoliyati samaradorligini oshirish borasida keng ko'lamli ishlar ro'yobga chiqarildi.

Bu yo'nalishdagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida davlatimiz rahbarining 2024-yil 2-fevraldagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilangani, uning doirasida "Kuchli Kengash, tashabbuskor va hisobdor

hokim" tamoyili asosida xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan muhim qadamlar tashlanayotganini keltirish mumkin.

Shuningdek, O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi belgilangan bo'lib, bu borada muayyan sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Xususan, Oliy Majlis Senati tomonidan mazkur konsepsiya ishlab chiqilishini tashkil etish komissiyasi hamda har bir yo'nalish bo'yicha soha mutaxassislaridan alohida ishchi guruhlar tuzildi.



Seminar

YOSHLARGA OID QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi tomonidan "Yoshlarga oid qonunchilikni takomillashtirishning bugungi kundagi dolzarb masalalari hamda ularning yechimlari" mavzuida seminar o'tkazildi.

Yurtimizda keyingi yillarda yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilib, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda oila, bolalar va yoshlar uchun alohida bob ajratildi. Davlat va jamiyat yoshlarda

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, o'z mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qilishi belgilandi.

Seminar ishtirokchilari qayd etganidek, yurtimizda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlar,

yoshlar siyosatiga oid fundamental ahamiyatga ega — "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunni zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

Qizg'in muhokama davomida ishtirokchilar tomonidan ushbu hujjat yanada pishiq-puxta bo'lishi, undagi normalar yoshlar manfaatlariga xizmat qilishi qayd etilgan holda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha qator takliflar ilgari surildi.

"Xalq so'zi".



Tadbir

"YASHIRIN IQTISODIYOT"NI QANDAY QILIB QISQARTIRISH MUMKIN?

Oliy Majlis Senatining Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi tomonidan "Yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish: muammo va yechim" mavzuida seminar o'tkazildi.

Unda senatorlar, vazirlik va idoralar mutasaddilari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Aytilganidek, mamlakatimizda "yashirin iqtisodiyot" ulushini kamaytirish hamda teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinishi bilan 84 ta, keyingi yillarda esa yana 66 ta soliq imtiyozlari bekor qilindi. O'z navbatida, individual imtiyozlar berish amaliyotidan to'liq voz kechildi.

Shularga mos ravishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, iqtisodiyotga avtomatlashtirilgan tizimni joriy qilish orqali "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish choralari ko'rildi. Ayni chog'da iqtisodiyotga soliq yukini adolatli taqsimlash uchun 2019-yil 1-oktabrdan boshlab QQS stavkasi 20 foizdan 15 foizga, 2023-yil 1-yanvardan 12 foizga pasaytirildi.



Fakt va raqamlar



ELEKTRLASHTIRILGAN TEMIR YO'LLAR UZUNLIGI QANCHA?

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra joriy yilning 1-yanvar holatiga umumfoydalaniladigan temir yo'llar uzunligi 4,8 ming kilometrni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 2,4 foizga oshgan. Umumfoydalanuvdagi temir yo'llarning 40,1 foizi elektrlashtirilgan.

Mazkur yo'llarning umumiy uzunligi eng yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar:

- Toshkent viloyati — 19,4 foiz;
- Qashqadaryo viloyati — 16,5 foiz;
- Samarqand viloyati — 12,6 foiz;
- Namangan viloyati — 10,6 foiz;
- Surxondaryo viloyati — 10,0 foiz.

